

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati
bilan Vengriya Hukumati o'rtasida
havo qatnovi to'g'risida
BITIM**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Vengriya Hukumati, keyingi o'rinlarda «Ahdlashuvchi Tomonlar» deb ataluvchilar,

1944-yil dekabr oyining 7-kunida Chikago shahrida imzolash uchun ochilgan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiya va Xalqaro havo yo'llarida tranzit to'g'risida Bitimning ishtirokchilari bo'lgan holda,

o'zlarining tegishli aviakorxonalariga qatnovlarni amalga oshirishda adolatli va teng imkoniyatlarni taklif qiluvchi hamda har bir Ahdlashuvchi Tomon davlatlarining qonunchiligiga muvofiq raqobat qilishga imkon beruvchi xalqaro aviatsiya tizimini rivojlantirish istagida,

o'zlariga tegishli va tashqari hududlarda havo kemalari qatnovini o'rnatish maqsadida yuqorida aytib o'tilgan Konvensiyaga qo'shimcha tarzda Bitim tuzish niyatida,

xalqaro havo transporti imkoniyatlarining kengayishini yengillashtirish istagida,

xalqaro havo transportida xavfsizlikni eng yuqori darajada ta'minlashni istab, hamda insonlar va mol-mulkni xavf ostida qoldiruvchi havo kemasi xavfsizligiga qaratilgan harakatlar yoki tahdidlarning jiddiy muammo ekanligini yana bir bor tasdiqlagan holda, va

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

**1-modda
Tushunchalar**

1. Mazkur Bitimni talqin qilish va qo'llash maqsadida, agar unda boshqacha holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

a) «**Konvensiya**» atamasi 1944-yil dekabr oyining 7-kunida Chikago shahrida imzolash uchun ochilgan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiyani anglatadi va har ikki Ahdlashuvchi Tomon qay darajada ratifikatsiya etgani yoki kuchga kirganiga qarab, Konvensiyaning 90-moddasiga muvofiq qabul qilingan har qanday Ilovani, shuningdek Konvensiyaning 90- va 94-moddalariga muvofiq Konvensiyaga yoki uning Ilovalariga kiritilgan har qanday o'zgartirishni o'z ichiga oladi:

b) «**Aviatsiya ma'muriyatlari**» atamasi O'zbekiston Respublikasiga nisbatan – Transport vazirligini; Vengriyaga nisbatan – Fuqaro aviatsiyasi bo'yicha bosh direktoratni; yoki ikkala holatda ham bunday aviatsiya

ma'muriyatlari tomonidan mazkur Bitimga bog'liq ravishda har qanday funksiyani amalga oshirish vakolati berilgan har qanday boshqa organ yoki shaxsni anglatadi;

c) «**tayinlangan aviakorxona**» atamasi Ahdlashuvchi Tomonlarning har biri tarafidan mazkur Bitimning 3-moddasiga muvofiq va uning Ilovasida belgilangan yo'nalishlarda, va kelishilgan qatnovlarni bajarish uchun tayinlangan, havo kemalari xalqaro qatnovini amalga oshirishni ta'minlovchi aviakorxonani anglatadi;

d) «**hudud**», «**havo kemalari xalqaro qatnovi**» va «**notijoriy maqsadlarda to'xtash**» atamalari tegishli ravishda Konvensiyaning 2- va 96-moddalarida ko'rsatilgan ma'nolarga ega bo'ladi;

e) «**Bitim**» atamasi mazkur Bitim, uning Ilovasi va kiritiladigan har qanday o'zgartirishlarni anglatadi;

f) «**belgilangan yo'nalishlar**» atamasi mazkur Bitim Ilovasida belgilangan yoxud belgilanishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni anglatadi;

g) «**kelishilgan qatnovlar**» atamasi mazkur Bitim shartlari asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan havo kemalari xalqaro qatnovini anglatadi;

h) «**tarif**» atamasi yo'lovchi, bagaj va yuk (pochtadan tashqari) tashish uchun to'lanadigan qiymatni, shu jumladan havo transporti orqali olinadigan yoki ta'minlanadigan har qanday ahamiyatli qo'shimcha foydani, shuningdek chiptalar sotuvi va tovarlar tashuvi uchun tegishli tranzaksiya bilan bog'liq to'lanadigan komissiyani anglatadi. Shuningdek, transport qiymatidan foydalanish shartlari va tegishli komissiya uchun to'lovlar ham kiradi;

i) «**fuqarolar**» atamasi O'zbekiston Respublikasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, Vengriyaga nisbatan Yevropa Ittifoqi a'zo-davlatlari fuqarolarini anglatadi;

j) «**YI shartnomalari**» Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Shartnomani hamda Yevropa Ittifoqining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi Shartnomani anglatadi;

k) «**foydalanuvchilardan undiriladigan yig'imlar**» atamasi aeroport yoki aeronavigatsiya jihozlaridan havo kemalari, ularning ekipaj a'zolari, yo'lovchilari va yuklariga xizmat ko'rsatishda foydalanish uchun aviakorxonalarga nisbatan tegishli ma'muriyatlar tomonidan qo'llaniladigan to'lovni anglatadi.

l) Mazkur Bitimdagi **Vengriya aviakorxonalariga** havolalar Vengriya tomonidan tayinlangan aviakorxonalarni anglatadi.

2. Ilova mazkur Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi. Bitimga barcha havolalar, basharti boshqacha holat aniq kelishilmagan bo'lsa, Ilovani o'z ichiga oladi.

2-modda

Huquqlar berish

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonga Ilovada belgilangan yo'nalishlar bo'yicha muntazam havo kemalari xalqaro qatnovlarini amalga oshirish maqsadida ushbu Bitimda ko'rsatib o'tilgan huquqlarni beradi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomondan tayinlangan aviakorxona belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish davomida quyidagi huquqlardan foydalanadi:

a) boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududidan qo'nmasdan uchib o'tish;

b) aytib o'tilgan hududda notijoriy maqsadlarda to'xtash;

c) boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida yo'lovchilarni, yuk va pochtani alohida yoki birgalikda boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududidagi manzillarda yoki mazkur Bitim Ilovasi shartlariga muvofiq boshqa davlat hududida olish yoki tushirish maqsadida mazkur Bitim Ilovasidagi yo'nalishlar jadvalida ko'rsatilgan manzillarda to'xtash.

3. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalaridan boshqa aviakorxonalariga ushbu moddaning (a) va (b) bandlarida keltirilgan huquqlar kafolatlanadi.

4. Mazkur Bitimdagi hech qaysi qoida bir Ahdlashuvchi Tomonning aviakorxonasiga haq evaziga yoki yollanish yo'li bilan boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududidagi bir manzildan o'sha Tomon davlati hududidagi ikkinchi manzilga olib borish uchun yo'lovchilar, ularning bagaji, yuk va pochtani havo kemasiga olish huquqini beradi deb hisoblanmaydi.

3-modda

Aviakorxonalarni tayinlash va ekspluatatsiya ruxsatnomalarini berish

1. Ahdlashuvchi Tomonlarning har biri boshqa Ahdlashuvchi Tomonni diplomatik kanallar orqali yozma ravishda xabardor qilish orqali belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish maqsadida bir yoki bir necha aviakorxonani tayinlash va avval tayinlangan aviakorxona o'rniga boshqa aviakorxonani tayinlash huquqiga ega.

2. Boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxona tayinlanganidan va tayinlangan aviakorxonadan belgilangan shakl va uslubdagi ariza olinganidan so'ng mazkur moddaning 3- va 4-bandlariga muvofiq eng qisqa muddatlarda faoliyat ko'rsatish uchun tegishli ekspluatatsiya ruxsatnomalarini beradi.

3. Bir Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlari boshqa Ahdlashuvchi Tomon tayinlagan har qanday aviakorxonadan mazkur ma'muriyat tomonidan Konvensiya qoidalariga muvofiq havo kemalari xalqaro qatnovini amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan odatda va asosli ravishda qo'llaniladigan shartlarni bajara olishini asoslantirishini talab qilishi mumkin.

4. Mazkur moddaning 2-bandida ko'rsatilgan ekspluatatsiya ruxsatnomalarini berish uchun quyidagilar talab etiladi:

(a) Vengriya tomonidan tayinlangan aviakorxonaga nisbatan:

i) aviakorxona Vengriya hududida YI shartnomalariga muvofiq tuzilgan bo'lishi hamda Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga asosan amaldagi faoliyat ko'rsatish ruxsatnomasiga ega bo'lishi; va

ii) aviakorxona faoliyatining tartibga solinishi ustidan nazorat havo ekspluatanti sertifikatini berishga mas'ul bo'lgan Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati tomonidan amalga oshirilishi va ta'minlanishi hamda tayinlashda tegishli aviatsiya ma'muriyati aniq belgilanishi; va

(b) O'zbekiston Respublikasi tomonidan tayinlangan aviakorxonaga nisbatan:

i) aviakorxona O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan bo'lishi hamda O'zbekiston Respublikasi aviatsiya ma'muriyatlari tomonidan berilgan amaldagi havo ekspluatanti sertifikatiga ega bo'lishi; va

ii) aviakorxona faoliyati tartibga solinishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilishi hamda ta'minlanishi.

5. Tayinlangan aviakorxona havo kemasi xalqaro qatnovlarini amalga oshirishda Konvensiya qoidalariga muvofiq qo'llaniladigan yoki Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligiga binoan odatda va asosli ravishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan shartlarga javob berishi lozim, va

6. 9- va 10-moddalarda belgilangan standartlar qo'llanilishi va ularga rioya qilinishi lozim.

7. Mazkur tarzda tayinlangan va ruxsatnoma olgan aviakorxona istalgan vaqtda mazkur Bitim qoidalariga muvofiq kelishilgan qatnovlarni amalga oshirishni boshlashi mumkin.

4-modda

Ekspluatatsiya ruxsatnomalarini qaytarib olish yoki to'xtatib qo'yish

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon tayinlagan aviakorxonaga berilgan ekspluatatsiya yoki texnik ruxsatnomalarni qaytarib olish yoki mazkur Bitimga muvofiq berilgan huqulardan foydalanishni to'xtatib qo'yish yoki bunday huquqlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan muayyan shartlarni bajarishni talab qilish huquqiga ega, bunda:

(a) Vengriya tomonidan tayinlangan aviakorxonaga nisbatan:

i) aviakorxona Vengriya hududida YI shartnomalariga muvofiq tuzilmagan yoki Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq amaldagi faoliyat ko'rsatish ruxsatnomasiga ega bo'lmasa; yoxud

ii) aviakorxona faoliyati tartibga solinishi ustidan nazorat havo ekspluatanti sertifikatini berishga mas'ul bo'lgan Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati tomonidan amalga oshirilmagan yoki ta'minlanmagan hamda tayinlanishda tegishli aviatsiya ma'muriyati aniq belgilanmagan bo'lsa; yoki

iii) agar aviakorxonaga O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati o'rtasidagi ikki tomonlama bitimga asosan faoliyat ko'rsatishga vakolat berilgan bo'la turib, o'sha boshqa Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati hududidagi manzil orqali ushbu Bitimga ko'ra tashish huquqlaridan foydalansa va bu aviakorxonaning o'sha boshqa Bitim qoidalariga amal qilmayotganligini O'zbekiston Respublikasi isbot qilsa; yoxud

iv) agar aviakorxona Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati tomonidan berilgan havo ekspluatanti sertifikatiga ega bo'lib, bu Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida havo kemalari qatnovi to'g'risida ikki tomonlama Bitim mavjud bo'lmasa va O'zbekiston Respublikasi tomonidan tayinlangan aviakorxonaga ushbu Yevropa Ittifoqi a'zo-davlatiga parvoz qilish huquqini berish rad etilsa.

Ushbu bandga asosan o'z huquqlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqi aviatashuvchilari o'rtasida ularning milliy mansubligiga ko'ra kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaydi.

(b) O'zbekiston Respublikasi tomonidan tayinlangan aviakorxonaga nisbatan:

i) aviakorxona O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilmagan yoki O'zbekiston Respublikasi aviatsiya ma'muriyatlari tomonidan berilgan amaldagi havo ekspluatanti sertifikatiga ega bo'lmasa; yoki

ii) aviakorxona faoliyatining tartibga solinishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilmasa yoki ta'minlanmasa; yoxud

(c) aviakorxona bunday huquqlarni berayotgan Ahdlashuvchi Tomon davlati qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermasa;

(d) aviakorxona ushbu Bitimda belgilangan shartlar asosida kelishilgan yo'nalishlardan foydalanish huquqini boshqa sabablarga ko'ra yo'qotsa;

(e) boshqa Ahdlashuvchi Tomon ushbu Bitimning 9- va 10-moddalariga muvofiq xavfsizlik standartlariga javob bermasa yoki bunday standartlarni qo'llay olmasa.

2. 9- va 10-moddalarga daxl qilmagan holda, mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan ruxsatnomani qaytarib olish, to'xtatib qo'yish yoki muayyan shartlarni bajarishni talab qilishi, Ahdlashuvchi Tomonlarning davlatlari qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish uchun zarur bo'lmasa bunday huquqdan faqatgina boshqa Ahdlashuvchi Tomon bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng foydalaniladi. Bunday maslahatlashuvlar, agar har ikkala Ahdlashuvchi Tomon o'rtasida boshqacha kelishuvga erishilmagan bo'lsa, bir Ahdlashuvchi Tomon so'rovnomasi kelib tushgandan so'ng o'ttiz (30) kun ichida o'tkaziladi.

5-modda

Kelishilgan qatnovlarni amalga oshirishni tartibga solish prinsiplari

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon mazkur Bitim bilan tartibga solinadigan kelishilgan qatnovlarni amalga oshirishda har ikki Ahdlashuvchi Tomon tayinlangan aviakorxonalarga raqobat qilish uchun adolatli va teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'zining tayinlangan aviakorxonasi yoki aviakorxonalari ushbu prinsiplarga muvofiq faoliyat ko'rsatayotganligini nazorat qilishi va zarur hollarda, bu shartlarning bajarilishi uchun choralar ko'radi.

2. Ahdlashuvchi Tomonlarning tegishli hududlari o'rtasida tayinlangan aviakorxonalari belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan havo kemalarining qatnovlari ommaviy tashuvlarga qo'yilgan talablarga yaqindan aloqador bo'lishi hamda mazkur Bitimning 14-moddasi qoidalariga muvofiq tariflarga mos ravishda Ahdlashuvchi Tomonlarning davlat hududlari o'rtasidagi havo kemalari qatnovlarining tartibli rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida havo kemasining oqilona yuklanishida yo'lovchilar, yuk va pochtani amaldagi va kutilayotgan

tashish talablariga mutanosib tashuv hajmlarini ta'minlash har bir aviakorxonaning asosiy vazifasi bo'ladi.

6-modda **Adolatli raqobat**

1. Ahdlashuvchi Tomonlar har ikki Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonalariga belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan qatnovlardan adolatli va teng imkoniyatlarda foydalanishlari uchun adolatli va raqobatbardosh muhit yaratib berishni o'zlarining umumiy maqsadlari deb tan oladilar. Shu tufayli, Ahdlashuvchi Tomonlar ushbu maqsadga to'la erishishni ta'minlash uchun tegishli choralar ko'radilar.

2. Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur Bitimning maqsadlari amalga oshirilishida mustaqil, adolatli va to'g'ri raqobat muhim ekanligi, raqobat masalalari bo'yicha qonunlar va mustaqil organlarning mavjudligi, shuningdek ushbu qonunlarning asosli va samarali qo'llanilishi aviatashuv xizmatlarini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning raqobatga oid mazkur moddadagi masalalarni o'z ichiga olgan qonunlari, vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirishlar bilan birga, har bir tegishli Ahdlashuvchi Tomonning qonunchiligi doirasida aviakorxonalar faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi. Ahdlashuvchi Tomonlar raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari maqsadlarining o'zaro mosligi va o'xshashligi, hamda uning samarali qo'llanilishida o'zaro hamfikrdirlar.

Ular raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri qo'llash maqsadida va zarur hollarda o'z qonun va qoidalariga muvofiq tegishli aviakorxona(lar) yoki boshqa fuqarolariga raqobatga aloqador har bir Tomon organlari amalga oshirgan harakatlar to'g'risida axborotni oshkor qilishga ruxsat berish orqali hamkorlik qiladilar.

3. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida Ahdlashuvchi Tomonlardan har birining (va Yevropa Komissiyasining) raqobat masalalari bo'yicha tegishli organlari va sud idoralarining vakolat va huquqlariga ta'sir o'tkazmaydi, cheklamaydi yoki to'sqinlik qilmaydi hamda raqobat huquqini qo'llash bilan bog'liq barcha masalalar bunday organ va sud idoralarining mutlaq vakolat doirasida bo'lishda davom etadi. Shu tufayli, Ahdlashuvchi Tomonlarning har qaysisi mazkur moddaga oid amalga oshirgan xatti-harakati bunday organ va sud idoralarining har qanday amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlariga zid bo'lmasligi lozim.

4. Mazkur moddaga muvofiq amalga oshirilgan har qanday harakat faqatgina Ahdlashuvchi Tomonlar javobgarligi ostida bo'ladi va faqatgina boshqa Ahdlashuvchi Tomonga va/yoki Ahdlashuvchi Tomonlar

hududidan va hududida aviatahuv xizmatlarini ko'rsatayotgan aviakorxona(lar)ga nisbatan yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday harakat ushbu Bitimning 19-moddasida ko'zda tutilgan nizolarni hal etish tartibiga asosan ko'rib chiqish uchun sabab bo'lmaydi.

Adolatsiz raqobat

5. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonalarining aviatahuv xizmatlarini taqdim qilishi chog'ida ularning adolatli va teng imkoniyatlardagi raqobatiga zararli ta'sir etadigan har qanday shakldagi kamsitishlar va adolatsiz harakatlarni bartaraf etadi.

Davlat subsidiyalari va qo'llab-quvvatlash

6. Hech bir Ahdlashuvchi Tomon o'zining aviakorxonalariga davlat subsidiyalari yoki ko'mak bermasligi yohud bunday subsidiya yoki ko'mak berilishiga ruxsat bermaydi, basharti ular boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonalariga havo kemalari qatnovlarini amalga oshirishda adolatli va teng imkoniyatlar yaratishga asossiz ravishda va keskin salbiy ta'sir qilsa. Ushbu davlat subsidiyalari yoki qo'llab-quvvatlash o'zida quyidagilarni jam qilishi, lekin ular bilan cheklanmasligi mumkin: kesishadigan subsidiyalar, ekspluatatsiya yo'qotishlarining o'zaro hisobi, kapital, grant, kafolat, kredit yoki sug'urtani imtiyoz asosida taqdim qilish, bankrotlikdan himoya qilish, qoplanishi lozim bo'lgan to'lovlardan va investitsiya qilingan byudjet mablag'larini chiqarib olishdan hamda soliq to'lashdan ozod etish yoki soliq imtiyozlari berish, davlat organlari tomonidan o'rnatilgan moliyaviy majburiyatlar uchun olinadigan soliq kompensatsiyalari; kamsitgan holda yoki notijoriy ravishda aeronavigatsiya yoki aeroport xizmatlarini ko'rsatish, yoqilg'i ta'minoti, yer usti xizmatini ko'rsatish, xavfsizlikni ta'minlash, kompyuter orqali bronlash tizimi, slotlarni taqsimlash va kelishilgan qatnovlardan foydalanish bilan bog'liq boshqa tegishli xizmatlarga ruxsat etish.

7. Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonaga yuqoridagi 6-bandda keltirilgan davlat subsidiyalarini taqdim qilsa yoki uni qo'llab-quvvatlasa, u bunday choralar ochiqqligini har qanday tarzda, shu jumladan aviakorxona hisobvaraqlarida aniq va alohida ifoda etilishini ta'minlaydi.

8. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon talabiga muvofiq oqilona muddatda birinchi Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligi ostidagi yuridik shaxslarga oid moliyaviy hisobotlarni va ushbu modda talablari bajarilayotganligini kafolatlaydigan ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon asosli ravishda talab qilgan boshqa har qanday kerakli axborotni taqdim etadi. Bu yuqoridagi 6-band mazmun mohiyatidan kelib chiqadigan subsidiya va qo'llab-quvvatlashga oid batafsil axborotni

o'z ichiga olishi mumkin. Ma'lumotdan foydalanishni so'rayotgan Ahdlashuvchi Tomonning tarafidan taqdim etilgan ma'lumotlar maxfiy axborot sifatida belgilanishi mumkin.

9. Mutasaddi raqobat organi va/yoki sud tomonidan joriy qilingan 5- va 6-bandlarda ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilish bo'yicha har qanday harakatga daxl qilmagan holda:

(a) agar bir Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonaga nisbatan 5- va 6-bandlar mazmunidan kelib chiqadigan ko'rsatilgan kamsitilish yoki adolatsiz amaliyot qo'llanilganligini aniqlasa va isbotlasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda boshqa Ahdlashuvchi Tomonga taqdim etishi mumkin. Bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonni ogohlantirgandan so'ng uning hududidagi mas'ul davlat organlariga, shuningdek markaziy, mintaqaviy yoki maxalliy miqyosdagi organlarga mazkur moddaga oid masalalarni muhokama qilish uchun murojaat etishi mumkin. Bundan tashqari, Ahdlashuvchi Tomon ushbu masalani hal qilish maqsadida boshqa Ahdlashuvchi Tomon bilan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin. Bunday maslahatlashuvlar so'rovnoma olingan kundan boshlab o'ttiz (30) kun ichida boshlanadi. Shuningdek, Ahdlashuvchi Tomonlardan birining murojaati bo'yicha ko'tarilgan masalani to'liq tahlil qilish maqsadida Ahdlashuvchi Tomonlar yetarlicha axborot almashadilar.

(b) agar Ahdlashuvchi Tomonlar yuqoridagi 5- yoxud 6-bandlar qoidalarining buzilishi bo'yicha maslahatlashuvlar boshlanganidan so'ng o'ttiz (30) kun ichida bir to'xtamga kela olmasalar yoki bunday maslahatlashuvlar so'rovnoma olingan kundan boshlab o'ttiz (30) kun ichida o'tkazilmasa, maslahatlashuvlar o'tkazishni taklif qilgan Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasi(lari)ga berilgan xizmat ko'rsatish huquqini rad etishi, bekor qilishi, to'xtatib qo'yishi yoki qaytib olishi yoxud shunday huquqlarni bajarish borasida kerakli hisoblangan talablar va majburiyatlarni qo'yishi yoxud boshqa choralarni ko'rish orqali mazkur Bitimda ko'rsatilgan ekspluatatsiya ruxsatnomasini to'xtatib turishi mumkin. Mazkur bandga muvofiq ko'rilgan har qanday choralar to'g'ri va mutanosib hamda bunday choralar qat'iy zaruriyligi ko'lami va davomiyligiga muvofiq ravishda cheklangan bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi qoidalar

10. Har bir Ahdlashuvchi Tomon 2-bandga asosan monopoliyaga qarshi qonunlarni qo'llaydi va aviakorxona(lar)ga:

(a) Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga/dan amalga oshirilayotgan havo kemalari qatnovlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va raqobatni bartaraf etish, cheklash yoki yo'q qilishga yo'naltirilgan boshqa har qanday

aviakorxona bilan shartnoma imzolash, qarorlar qabul qilish yoki o'zaro muomalaga kirishishni ta'qiqlaydi. Bunday shartnomalar, qarorlar yoki amaliyot o'z navbatida xizmatlar ko'rsatilishi yoki kengayishi yoxud texnik yoki iqtisodiy rivojlanish, shuningdek iste'molchilarga olinayotgan foydaning adolatli ulushiga ega bo'lishga imkon berishi bilan bog'liq omillar yaxshilanishiga hissa qo'shsa, ushbu ta'qiq qo'llanilmasligi e'lon qilinishi mumkin va bunda: (a) ushbu maqsadlarga erishishda bunday cheklovlarni tadbiq etilmaslik imkoni bo'lsa, ular aviakorxonalarga nisbatan qo'llanilmaydi; (b) bunday aviakorxonalarga tegishli xizmatlarning asosiy qismiga nisbatan raqobatni bartaraf qilish imkoni berilmaydi, hamda

(b) Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga/dan amalga oshirilayotgan havo kemalari qatnovlariga ta'sir etuvchi ustun mavqeini suiste'mol qilish hollarini ta'qiqlaydi.

11. Har bir Ahdlashuvchi Tomon yuqoridagi 10-bandda ko'rsatilgan monopoliyaga oid qoidalar qo'llanilishini faqatgina o'zining mustaqil tegishli idorasi va/yoki sudiga topshiradi.

12. Agar bir Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasi yuqoridagi 10-band qoidalari buzilganligi oqibatida zarar ko'rayotganligini aniqlasa va buni isbotlab bersa, 10-bandda belgilangan qoidalarga rioya qilishga oid tegishli idora yoki sud tomonidan qo'llaniladigan har qanday harakatlarga daxl qilmagan holda, boshqa Ahdlashuvchi Tomonga yozma ravishda e'tiroz bildirishi mumkin. Bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonni ogohlantirgandan so'ng uning hududidagi mas'ul davlat organlariga, shuningdek markaziy, mintaqaviy yoki mahalliy, miqiyosidagi organlarga mazkur moddaga oid masalalarni muhokama qilish uchun murojaat etishi mumkin. Bundan tashqari, Ahdlashuvchi Tomon ushbu masalani hal qilish maqsadida boshqa Ahdlashuvchi Tomon bilan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin. Bunday maslahatlashuvlar so'rovnoma olingan kundan boshlab o'ttiz (30) kun ichida boshlanadi. Shuningdek, Ahdlashuvchi Tomonlardan birining murojaati bo'yicha ko'tarilgan masalani to'liq tahlil qilish maqsadida Ahdlashuvchi Tomonlar yetarlicha axborot almashadilar.

13. Agar Ahdlashuvchi Tomonlar 10-band qoidalarining buzilishi bo'yicha maslahatlashuvlar boshlangandan so'ng o'ttiz (30) kun ichida bir to'xtamga kela olmasalar yoki muzokoralar so'rovnoma olingan kundan boshlab o'ttiz (30) kun ichida o'tkazilmasa, va tegishli organ yoki sud monopoliyaga oid qoidalar buzilgan deb topsa, maslahatlashuvlar o'tkazishni taklif qilgan Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasiga berilgan xizmat ko'rsatish huquqini rad etishi, bekor qilishi, to'xtatib qo'yishi yoki qaytib olishi yoxud shunday

huquqlarni bajarish borasida kerakli hisoblangan talablar va majburiyatlarni qo'yishi yoxud boshqa choralar ko'rish orqali mazkur Bitimda ko'rsatilgan ekspluatatsiya ruxsatnomasini to'xtatib turishi mumkin. Mazkur bandga muvofiq ko'rilgan har qanday choralar to'g'ri va mutanosib hamda bunday choralar qat'ian zaruriyligi ko'lami va davomiyligiga muvofiq ravishda cheklangan bo'ladi.

7-modda

Qonun hujjatlari va qoidalarining qo'llanilishi

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon davlatining xalqaro havo kemalari qatnovlariga jalb qilingan havo kemasining yoki ushbu davlat hududida havo kemasining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq holda uning hududiga uchib kelishi va uchib ketishini nazorat qiluvchi qonun hujjatlari boshqa Ahdlashuvchi Tomon tayinlagan aviakorxonalari havo kemalariga nisbatan qo'llaniladi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga yo'lovchilar, ekipajlar, bagajlar, pochta va yuklarning kirishi, harakatlanishi, bo'lishi va jo'nab ketishini nazorat qiluvchi qonun hujjatlari, shuningdek, mamlakatga kirish va chiqish talablari bilan bog'liq qoidalar, aviatsiya xavfsizligi, immigratsiya, bojxona pasportlari, valyuta va sog'liqni saqlash, karantin va sanitariya choralari bunday hududda boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalari faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi.

3. Hech bir Ahdlashuvchi Tomon ushbu moddada nazarda tutilgan qonunlar va qoidalarini qo'llashda o'zining yoki boshqa aviakorxonaga boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalariga nisbatan ustunlik bermaydi.

8-modda

Sertifikat va ruxsatnomalarni tan olish

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining, Vengriya holatida esa Yevropa Ittifoqi qonun hujjatlariga muvofiq berilgan yoki haqiqiy deb tan olingan va amal qilish muddati o'tmagan uchishga yaroqlilik sertifikatlari, ekspluatant sertifikatlari va ruxsatnomalari ushbu Bitim Ilovasida belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish maqsadida, agar bunday sertifikat va ruxsatnomalar berilishi yoki haqiqiy deb tan olinishi uchun asos bo'lgan talablar Konvensiyada belgilangan minimal standartlarga teng yoki ulardan yuqoriroq bo'lgan taqdirda boshqa Ahdlashuvchi Tomon tarafidan haqiqiy deb tan olinadi.

2. Biroq, har bir Ahdlashuvchi Tomon fuqarolariga uning hududidan uchib o'tish va/yoki hududida qo'nish maqsadida boshqa Ahdlashuvchi Tomon bergan ekspluatant sertifikatlari va ruxsatnomalarning haqiqiyligini tan olishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

9-modda

Parvozlarning xavfsizligi

1. Har bir Ahdlashuvchi Tomon istalgan vaqtda aviatsiya xizmatlari, ekipaj, havo kemasi yoki ularni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq boshqa Ahdlashuvchi Tomon qabul qilgan parvoz xavfsizligi standartlari bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish to'g'risida murojaat qilishi mumkin. Bunday maslahatlashuvlar murojaat qilingan sanadan boshlab o'ttiz (30) kun ichida o'tkaziladi.

2. Agar bunday maslahatlashuvlar natijasida Ahdlashuvchi Tomonlardan biri boshqa Ahdlashuvchi Tomon 1-bandda ko'rsatilgan yo'nalishlarda xavfsizlik standartlarini, hech bo'lmaganda Konvensiyada belgilangan minimal standartlarni ta'minlamayotganligini aniqlasa, boshqa Ahdlashuvchi Tomonni bunday xulosalar va o'sha minimal standartlarga rioya etish yuzasidan zarur harakatlarni amalga oshirishi bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qiladi, boshqa Ahdlashuvchi Tomon esa kamchiliklarni tuzatish bo'yicha tegishli choralarni ko'radi. Boshqa Ahdlashuvchi Tomon tegishli chora-tadbirlarni o'n besh (15) kun davomida yoki boshqa kelishilgan muddat mobaynida amalga oshira olmasligi mazkur Bitimning 4-moddasini tadbiriq etishga sabab bo'ladi.

3. Konvensiyaning 33-moddasida eslatib o'tilgan majburiyatlarga qaramasdan, bir Ahdlashuvchi Tomonning aviakorxonasi yoki aviakorxonalari tomonidan boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududiga/dan havo qatnovlari uchun foydalanilayotgan yoki ijara asosida foydalanilayotgan har qanday havo kemasi boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida uning vakolatli vakillari tomonidan havo kemasi va ekipaji hujjatlarining haqiqiyligi, shuningdek havo kemasi hamda asbob-uskunasining tegishli holatdiligini aniqlash maqsadida tekshiruvdan (mazkur moddada "perron tekshiruvi" deb ataluvchi) o'tkazishi mumkin, basharti bunday tekshiruv asossiz kechiktiruvga olib kelmasa.

4. Agar bunday perron tekshiruvi yoki tekshiruvlari natijasida:

a) havo kemasi yoki havo kemasining ekspluatatsiyasi Konvensiyaga muvofiq o'sha paytda amalda bo'lgan minimal standartlarga javob bermasligi to'g'risida jiddiy xavotir tug'ilsa; yoki

b) Konvensiyaga muvofiq o'sha paytda o'rnatilgan xavfsizlik standartlarini samarali ta'minlanishi va ularga rioya etilishida kamchilik borligi jiddiy tashvishga solayotgan bo'lsa,

Tekshiruv o'tkazayotgan Ahdlashuvchi Tomon Konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq ushbu havo kemasini yoki uning ekipajiga tegishli bo'lgan amaldagi sertifikat yoki ruxsatnomalarga qo'yilgan talablar, yoki shu havo kemasidan foydalanishga qo'yilgan talablar Konvensiyada belgilangan standartlarning minimal darajasiga teng yoki ulardan yuqoriroq emas degan xulosa chiqarishda erkin bo'ladi.

5. Agar bir Ahdlashuvchi Tomonning aviakorxonasi yoki aviakorxonalari tomonidan foydalanilayotgan havo kemasining ushbu moddaning 3-bandiga muvofiq perron tekshiruvini o'tkazishga shu aviakorxona yoki aviakorxonalarning vakili yo'l qo'ymasa, boshqa Ahdlashuvchi Tomon ushbu moddaning 4-bandida ta'riflangan jiddiy xavotir mavjud degan fikrga kelishi va shu band asosida tegishli xulosa chiqarishda erkin bo'ladi.

6. Har bir Ahdlashuvchi Tomon, agar birinchi Ahdlashuvchi Tomon perron tekshiruvini yoki bir necha perron tekshiruvlarini o'tkazish, perron tekshiruvini o'tkazishni rad qilish, maslahatlashuvlar yoki boshqa muzokaralar natijasida aviakorxona yoki aviakorxona faoliyati xavfsizligi uchun tezkor choralar ko'rilishi lozim degan xulosaga kelsa, boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasi yoki aviakorxonalarga berilgan ruxsatnomani darhol to'xtatish yoki o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. Choralar ko'rishga sabab bo'lgan asoslar bartaraf qilingan taqdirda, yuqoridagi 2- yoki 6-bandlarga muvofiq Ahdlashuvchi Tomonlardan biri qo'llagan choralar davom ettirilmaydi.

8. Tartibga solish nazorati Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati tomonidan amalga oshiriladigan va ta'minlanadigan aviakorxonani Vengriya tayinlasa boshqa Ahdlashuvchi Tomonning bu boradagi huquqlari boshqa Yevropa Ittifoqi a'zo-davlati tomonidan xavfsizlik standartlarining qabul qilinishi, qo'llanilishi yoki ta'minlanishiga nisbatan ham va shu aviakorxonaga berilgan ruxsatnomaga nisbatan ham bir xilda qo'llaniladi.

10-modda

Aviatsiya xavfsizligini ta'minlash

1. Ahdlashuvchi Tomonlar xalqaro huquqdan kelib chiqadigan o'zlarining huquq va majburiyatlariga muvofiq fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoya qilish bo'yicha o'zaro majburiyati ushbu Bitimning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydilar.

2. Fuqarolik havo kemalari, ularning yo'lovchilari va ekipaji xavfsizligini ta'minlash xalqaro havo qatnovining asosiy sharti bo'lganligi sababli, Ahdlashuvchi Tomonlar bir-birining oldidagi fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoya qilish bo'yicha o'zaro majburiyatlari (va xususan, Chikago Konvensiyasi va uning Ilovalari, 1963-yil 14-sentyabrda Tokioda imzolangan Havo kemasida sodir etiladigan jinoyatchilik va boshqa harakatlar to'g'risidagi Konvensiya, 1970-yil 16-dekabrda Gaagada imzolangan Havo kemalarining g'ayriqonuniy ravishda egallab olinishiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya, 1971-yil 23-sentyabrda Monrealda qabul qilingan Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya va 1988-yil 24-fevralda Monrealda imzolangan Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatayotgan aeroportlarda g'ayriqonuniy kuch ishlatish harakatlariga qarshi kurash to'g'risidagi Bayonnomadan kelib chiqadigan ularning majburiyatlari) ushbu Bitimning ajralmas qismi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydilar.

3. Ular ularning hududida ro'yxatdan o'tgan yohud Ahdlashuvchi Tomonlar davlati hududida qat'iy tijorat joyi yoki bosh ofisi joylashgan yohud Vengriya holatida, Yevropa Ittifoqi shartnomalariga muvofiq uning hududida ta'sis etilgan havo kemalari ekspluatantlaridan Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq amalda bo'lgan ekspluatatsiya ruxsatnomasiga egaligini talab qiladilar va o'zlarining hududlaridagi aeroport operatorlari bunday xavfsizlik qoidalariga muvofiq faoliyat ko'rsatadilar.

4. Ahdlashuvchi Tomonlar iltimosnomaga ko'ra havo kemasini g'ayriqonuniy qo'lga olishning hamda havo kemasiga, undagi yo'lovchilar va ekipaj a'zolariga, aeroportlar va aeronavigatsiya vositalariga, shuningdek fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga tahdid soluvchi har qanday boshqa noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishda bir-birlariga barcha zaruriy yordamni ko'rsatadilar.

5. Bundan tashqari, Ahdlashuvchi Tomonlar o'zlarining ro'yxatdan o'tgan havo kemalari ekspluatatorlaridan yoki o'z hududida qat'iy tijorat joyi yoki bosh ofisi joylashgan havo kemalari ekspluatantlaridan hamda o'z hududidagi aeroportlar operatorlaridan Ahdlashuvchi Tomonlarga nisbatan qo'llaniladigan aviatsiya xavfsizligi bo'yicha bunday qoidalariga muvofiq harakat qilishlarini talab qiladilar.

6. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'zining havo kemasi ekspluatantlari boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududidan jo'nab ketayotganda yoki uning hududida bo'lgan vaqtida ushbu davlatda amaldagi qonunchilikka, shuningdek, Vengriya holatida, Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq aviatsiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari talab etilishiga rozi bo'ladi.

7. Har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z hududida havo kemasini himoya qilish, yo'lovchilar, ekipaj va olib ketuvchi buyumlarni xavfsizlikni tekshirish hamda qo'nish yoki yuklashdan oldin bagaj, yuk va havo kemasi omborlarida tegishli xavfsizlik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar samarali qo'llanilishini ta'minlaydi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon, shuningdek, boshqa Ahdlashuvchi Tomonning muayyan tahdidni bartaraf etish uchun oqilona maxsus xavfsizlik choralari ko'rish to'g'risidagi har qanday so'rovini ijobiy ko'rib chiqishga rozi bo'ladi.

8. Agar fuqaro havo kemasini noqonuniy qo'lga kiritish hodisasi yoki ushbu hodisa sodir bo'lish xavfi mavjud bo'lsa, yoki bunday havo kemasiga, uning yo'lovchilariga va ekipaj a'zolariga, aeroportlarga va aeronavigatsiya vositalariga qarshi qaratilgan boshqa noqonuniy harakatlar amalga oshirilsa, Ahdlashuvchi Tomonlar aloqalarni yengillashtirish yo'li bilan yoki bunday hodisani yoxud xavfni tezda va muvaffaqiyatli oldini olish maqsadida boshqa tegishli choralar ko'rish orqali bir-birlariga yordam beradilar.

9. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomonning qonunga xilof olib qo'yilgan yoki boshqa noqonuniy aralashuv harakatlariga duchor bo'lgan havo kemasi o'z hududida ushlab turilishini ta'minlash uchun zarur deb topadigan choralarni ko'radi agar jo'nab ketish uning yo'lovchilari va ekipajining hayotini himoya qilish bo'yicha asosiy majburiyatdan kelib chiqmasa.

10. Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan birining boshqa Ahdlashuvchi Tomon ushbu moddaning aviatsiya xavfsizligiga oid qoidalariga rioya qilmayotganligi haqida xulosaga kelishi uchun yetarlicha asosi bo'lsa, birinchi Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyati boshqa Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyati bilan zudlik bilan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin. Bunday so'rov yuborilgan kundan boshlab o'n besh (15) kun ichida qoniqarli kelishuvga erishilmasa, ushbu Bitimning 4-moddasi (1) bandini qo'llash uchun asos bo'ladi. Favqulodda vaziyat talab qilganda, Ahdlashuvchi Tomon 4-moddaning (1) bandiga muvofiq o'n besh (15) kun o'tgunga qadar vaqtinchalik choralar ko'rish mumkin. Ushbu bandga muvofiq amalga oshirilgan har qanday harakat boshqa Ahdlashuvchi Tomon tarafidan ushbu moddaning xavfsizlik qoidalariga rioya qilingandan keyin to'xtatiladi.

11-modda

Foydalanuvchilardan undiriladigan yig'imlar

1. Bir Ahdlashuvchi Tomon tegishli ma'muriyatlari yoki organlari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasidan yoki aviakorxonalaridan aeroport vositalari va xizmatlari, parvoz xavfsizligi, aviatsiya xavfsizligi, aeronavigatsiya va boshqa ularning nazoratida bo'lgan vositalaridan foydalanganliklari uchun olishi mumkin bo'lgan yig'imlar adolatli, oqilona bo'lishi va kamsitish asosida bo'lmashligi hamda turli toifadagi foydalanuvchilar o'rtasida adolatli taqsimlanadi. Ular bunday xizmatlar va vositalardan foydalanganlik uchun shu kabi yoki shunga o'xshash xalqaro aviatashuvlarni amalga oshirayotgan boshqa aviakorxonadan olinayotgan yig'implardan yuqori bo'lmaydi.

2. Bunday yig'imlar aeroport xizmatlari, shuningdek parvoz xavfsizligi, aviatsiya xavfsizligi va aeronavigatsiyani ta'minlashga sarflangan umumiy xarajatlarning oqilona hissasini aks ettiradi, lekin ulardan yuqori bo'lmaydi. Yig'im olinayotgan xizmatlar va vositalar tejamli va samarali ravishda ko'rsatiladi. Har bir Ahdlashuvchi Tomon ma'muriyatlari va tegishli organlari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasini yoki aviakorxonalarini bunday yig'implarga har qanday muhim o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risida xabardor qiladi; bunday xabarnoma o'zgartirish kuchga kirmasdan avval oqilona muddat ichida yuboriladi. Yig'implarning oshirilishi hollarida har bir Ahdlashuvchi Tomon davlati o'z hududida ma'muriyatlar yoki tegishli organlar bilan mazkur xizmat va vositalardan foydalanayotgan aviakorxonalar o'rtasida maslahatlashuvlar o'tkazilishini qo'llab-quvvatlaydi.

12-modda

Bojxona yig'implari va soliqlar

1. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining tayinlangan aviakorxonasi tomonidan kelishilgan qatnovlarda foydalaniladigan havo kemalari, shuningdek odatiy sahn jihozlari (kavo kemasining ekspluatasiya qilinishida foydalaniladigan zaruriy jihozlar), yonilg'i zahiralari, moylash xom ashyolari va havo kemalarining sahn zahiralari (shu jumladan oziq-ovqat, ichimliklar, tamaki mahsulotlari) o'zarolik asosida amaldagi qonunchilikka muvofiq barcha import cheklovlaridan, mol-mulk soliqlaridan, bojxona bojidan, maxsus soliq va yig'implardan yoki boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida olinadigan shu kabi yig'im va

boshqa soliqlardan, ushbu jihoz va zahiralar havo kemalari sahnida ularni qayta olib chiqib ketgunga qadar qolishi sharti bilan ozod etiladi.

2. Shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan yig'implardan tashqari, quyidagilar bojxona bojlari, soliqlar va yig'implardan ozod etiladi:

a) har bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasi kelishilgan qatnovlarda foydalaniladigan havo kemasining sahniga olingan va unda foydalanish uchun mo'ljallangan ushbu Ahdlashuvchi Tomon ma'muriyatlari o'rnatgan cheklovlar miqdoridagi sahn zahirolari;

b) bir Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga boshqa Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasi tomonidan kelishilgan qatnovlarda foydalaniladigan havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish yoki uni ta'mirlash uchun olib kirilgan ehtiyot qismlari;

c) bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonasi tomonidan kelishilgan qatnovlarda foydalaniladigan havo kemasi sahniga olingan va unda ishlatish uchun mo'ljallangan yonilg'i va moylash ashyolari, hatto mazkur zahiralar havo kemasi sahniga olingan Ahdlashuvchi Tomon hududi miqyosida ishlatilgan taqdirda ham;

d) aviakorxonaning belgisi bo'lgan barcha turdagi bosma materiallar, chiptalar, yuk xati va tayinlangan aviakorxonalar tomonidan tekinga tarqatiladigan materiallar.

3. Bir Ahdlashuvchi Tomonning havo kemasi sahnidagi odatiy sahn jihozlari, shuningdek ehtiyot qismlar va sahn zahirolari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning hududida faqatgina mazkur Ahdlashuvchi Tomon bojxona organlarining roziligi bilan tushirilishi mumkin. Bunday holatda ular Ahdlashuvchi Tomonlar davlatlarining bojxona qonunchiligiga muvofiq olib chiqilguniga yoki boshqa maqsadlarga yo'naltirilguniga qadar yuqorida qayd etilgan organlarning nazorati ostida bo'ladi.

4. Ushbu moddada qayd etilgan istisnalar Ahdlashuvchi Tomonlarning tayinlangan aviakorxonalari boshqa aviakorxonalar bilan ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida mazkur moddada ko'rsatilgan odatiy jihozlar va o'zga ashyolarni qarzga olish yoki ularni o'tkazish kabi kelishuvlar tuzgan holatlarda ham bir hil imtiyozlar qo'llanishi sharti bilan tadbiq etiladi.

5. Har qaysi Ahdlashuvchi Tomon hududidan tranzit orqali o'tayotgan yo'lovchilar va ularning bagajlarini nazorat qilish ikkala Ahdlashuvchi Tomonlar davlatlarining bojxona qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Bevosita tranzit orqali o'tayotgan bagaj va yuklar bojxona to'lovlari va boshqa turdagi yig'implardan ozod qilinadi.

6. Mazkur moddada qayd etilgan istisnolar Ahdlashuvchi Tomonlar davlatlarining bojxona qonunchiligida belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq taqdim etiladi.

7. Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq mazkur Bitimdagi hech bir qoida Vengriyaga O'zbekiston Respublikasi tayinlangan aviakorxonasining Vengriya hududidagi bir manzildan uning yoki boshqa Yevropa Ittifoqiga a'zo-davlatning hududidagi ikkinchi manzilga parvozlarni amalga oshirayotgan havo kemasida ishlatish uchun uning hududida yetkazib berilgan yonilg'i uchun adolatli ravishda soliqlar, yig'imlar, bojlar yoki to'lovlar undirishga to'sqinlik qilmaydi.

8. Mazkur Bitimdagi hech bir qoida O'zbekiston Respublikasiga Vengriya tayinlangan aviakorxonasining O'zbekiston Respublikasi hududidagi bir manzildan uning hududidagi ikkinchi manzil orasida parvozlarni amalga oshirayotgan havo kemasida ishlatish uchun uning hududida yetkazib berilgan yonilg'i uchun adolatli ravishda soliqlar, yig'imlar, bojlar yoki to'lovlar undirishga to'sqinlik qilmaydi.

9. Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risida tegishli maxsus bitim mavjud bo'lgan taqdirda, bunday kelishuv ustuvor hisoblanadi.

13-modda

Hajm

1. Ahdlashuvchi Tomonlarning tayinlangan aviakorxonalariga ushbu Bitimda belgilangan yo'nalishlar bo'yicha kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish uchun adolatli va teng imkoniyatlar yaratib beriladi.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalari taqdim etadigan parvozlar takroriyligi, tashuvlar hajmi va huquqi Ahdlashuvchi Tomonlarning aviatsiya ma'muriyatlari o'rtasida kelishiladi.

3. Ahdlashuvchi Tomonlar tayinlangan aviakorxonalari parvozlar boshlanishidan kamida o'ttiz (30) kun oldin parvoz jadvallarini tasdiqlash uchun ikkinchi Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlariga taqdim etadi. Jadvallarni tasdiqlash uchun aviakorxonalar parvozlar takroriyligi, jadvallar, havo kemasi turi va konfiguratsiyasi hamda yo'lovchilar o'rnining miqdori to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oluvchi tashuvlar dasturini taqdim etadilar.

4. Tasdiqlangan jadvalga kiritiladigan har qanday keyingi o'zgartirishlar tasdiqlashga taqdim etiladi.

5. Ahdlashuvchi Tomonlardan biri boshqa Ahdlashuvchi Tomonning bir yoki undan ortiq aviakorxonalari amalga oshirayotgan xizmatlarini ushbu moddada ko'zda tutilgan prinsiplar va majburiyatlarga muvofiq

emas deb hisoblasa, mazkur holatni aniqlash va birgalikda tegishli harakatlarni belgilab olish maqsadida ushbu Bitimning 18-moddasiga muvofiq maslahatlashuvlar o'tkazilishini so'rashi mumkin.

14-modda

Tariflar

1. Mazkur Bitimga muvofiq kelishilgan qatnovlardagi xalqaro tashuvlar uchun belgilangan tariflar ekspluatasiya xarajatlari, xizmat ko'rsatish shartlari, foydalanuvchilar manfaatlari, oqilona foyda va bozor bilan bog'liq boshqa ko'rsatgichlarni o'z ichiga oluvchi barcha tegishli omillarni inobatga olgan holda Ahdlashuvchi Tomonlardan har birining aviakorxonalari tomonidan oqilona darajada erkin belgilanadi. Hech bir Ahdlashuvchi Tomon o'z aviakorxonalaridan boshqa aviakorxonalar tariflari to'g'risida maslahatlashishni talab qilmaydi yoki ushbu Bitimda nazarda tutilgan xizmatlar uchun haq olishni taklif qilmaydi.

2. Ahdlashuvchi Tomonlardan hech qaysi biri raqobat va iste'molchilar huquqini himoya qilishga oid qonun hujjatlariga daxl qilmagan holda har qaysi Ahdlashuvchi Tomonda qo'llanilayotgan boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasi tomonidan mazkur Bitimda nazarda tutilgan xizmatlar bo'yicha xalqaro tashuvlar uchun undirilishi taklif etilgan tarifning tayinlanishiga yoki uning muddatini uzaytirishga to'sqinlik qilish bo'yicha bir tomonlama harakat olib bormaydilar. Ahdlashuvchi Tomonlarning aralashuvi quyidagilar bilan cheklanadi:

- a) asossiz kamsituvchi narx yoki harakatlarning oldini olish;
- b) iste'molchilarni ustun mavqeini suiste'mol qilish bilan bog'liq asoslanmagan yuqori yoki chegaralovchi tariflardan himoya qilish;
- c) aviakorxonalarni bevosita yoki bilvosita subsidiya yoki qo'llab-quvvatlash orqali narxlarning sun'iy pasaytirilishidan himoya qilish;
- d) aviakorxonalarni raqobatni bartaraf etishga qaratilgan narxlarning sun'iy pasaytirilishidan himoya qilish, basharti bunda aniq dalil mavjud bo'lsa.

3. Agarda Ahdlashuvchi Tomonlardan birining aviatsiya ma'muriyatlari alohida tariflar mazkur moddaning 2a, 2b, 2c va 2d bandlarida ko'rsatilgan toifaga tushadi deb hisoblasa, u qisqa muddat ichida ushbu holatning unga ma'qul emasligi to'g'risida boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviatsiya ma'muriyatlari va tegishli aviakorxonaga xabarnoma yuborishi hamda mazkur moddaning 4-bandida ko'rsatilgan tartibga asosan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin.

4. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlaridan ushbu boshqa

Ahdlashuvchi Tomon aviakorxonasi birinchi Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga yoki hududidan amalga oshirayotgan xalqaro tashuvlarga nisbatan qo'llanilayotgan har qanday tariflar, shuningdek qanoatlantirmasligi to'g'risida xabarnoma yuborilgan tariflarni o'z ichiga olgan holatlarga oid maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin. Bu kabi maslahatlashuvlar so'rovnoma olingandan so'ng o'ttiz (30) kundan kechiktirilmasdan o'tkaziladi. Ahdlashuvchi Tomonlar masalaning oqilona hal etilishi uchun zarur axborotlarni himoya qilishda hamkorlik qiladilar. Agar qanoatlantirmayotgan tarif bo'yicha kelishuvga erishilsa, Ahdlashuvchi Tomonlarning aviatsiya ma'muriyatlari bunday kelishuvning kuchga kirishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'radilar. Agar bunday o'zaro kelishuvga erishilmasa, tarif kuchga kirgan yoki amal qilishi davom etgan hisoblanadi.

15-modda

Tijoriy imkoniyatlar

1. Ahdlashuvchi Tomonlarning aviakorxonalari o'zarolilik prinsipi asosida boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida o'z idoralarini ochish va vakillarini tayinlash, shuningdek kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tijoriy, eksplutatsion va texnik xodimlar saqlashlari mumkin.

2. Xodimlarga bo'lgan ehtiyoj Ahdlashuvchi Tomonlardan har birining tayinlangan aviakorxonalari xohishiga ko'ra o'zlarining yoki boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlat hududidan uchishlarni amalga oshiruvchi va shu Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida bu kabi parvozlarni amalga oshirish uchun ruxsatnomaga ega har qanday boshqa vakolatli tashkilot, kompaniya yoki aviakorxona xodimlari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

3. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomon tayinlagan aviakorxonasi yoki aviakorxonalarining tegishli xodimlariga o'zarolilik asosida o'z hududida aeroportga va boshqa Ahdlashuvchi Tomon tayinlagan aviakorxonasining havo kemalari qatnovlari, ekipaji, yo'lovchilari, yuklariga xizmat ko'rsatiladigan hududlarga kirishga ruxsat beradi.

4. Alohida holatlarda xodimlarning favqulodda va vaqtinchalik boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududiga kirishi yoki u yerda bo'lishlari uchun har bir Ahdlashuvchi Tomonning qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinadigan ruxsatnoma, viza va boshqa har qanday hujjat berish masalasi bunday xodimlarning ushbu davlat hududiga kirishlarini kechiktirmaslik uchun qisqa muddatlarda ko'rib chiqiladi.

5. Har bir Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligiga muvofiq, shuningdek Vengriyaga nisbatan Yevropa Ittifoqi qonun hujjatlariga muvofiq, har bir aviakorxona boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida o'z yer usti xizmatini ko'rsatish (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish) yoki o'z xohishiga ko'ra yer usti xizmatini qisman yoxud to'liq ko'rsatilishini amalga oshiruvchi o'zaro raqobatchi ta'minotchilar ichidan birini yoki bir nechtasini tanlash huquqiga ega. Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan birining davlati hududida yer usti xizmatlariga nisbatan qo'llaniladigan qonun va qoidalar tayinlangan aviakorxonalarga o'zlariga tegishli xizmatlarni amalga oshirish yoki bunday xizmatlar bo'yicha shartnomalar tuzishiga to'sqinlik qilsa yoki cheklasa, har bir tayinlangan aviakorxona o'ziga shunday xizmat ko'rsatishda va boshqa ta'minotchi yoki ta'minotchilar ko'rsatadigan yer usti xizmatlaridan foydalanishda kamsitilmaydi.

6. Xalqaro tashuvlarda band bo'lgan boshqa aviatashuvchilarga nisbatan o'zarolilik va kamsitmaslik asosida Ahdlashuvchi Tomonlarning aviakorxonalari ikkala Ahdlashuvchi Tomonlar davlatlari hududlarida bevosita yoki agent orqali har ikkala Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligiga muvofiq har qanday pul birligida aviatashuvlarni sotish huquqiga ega.

7. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning aviakorxonasi aviachipta sotilgan hududdan ushbu aviakorxona joylashgan hududga aviachipta sotilgan hududida xarajatlardan tashqari olingan daromadlar qiymatini erkin o'tkazish huquqiga ega. Bunday transfer bevosita yoki agent orqali aviatashuvlarni sotish, yordamchi yoki qo'shimcha xizmatlardan olingan daromadni va bunday daromadlardan olingan va transferni amalga oshirgunga qadar depozitga kiritilgan oddiy foizlarni o'z ichiga oladi.

8. Pul mablag'larini o'tkazish har bir Ahdlashuvchi Tomonning davlati hududida amaldagi soliq majburiyatlarini buzmaganda amalda amalga oshiriladi.

9. Ahdlashuvchi Tomonlarning tayinlangan aviakorxonalariga mablag'larni belgilangan muddatlarda so'rovnoma vaqtida amalda bo'lgan rasmiy ayirboshlash kursi bo'yicha xorijiy valyutada o'tkazish uchun ruxsat beriladi.

10. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalariga xalqaro havo kemalari qatnovlarini amalga oshirish munosabati bilan yer usti transportining har qanday turidan Ahdlashuvchi Tomonlarning davlat hududidagi yoki uchinchi davlatlar hududidagi har qanday manzildan(ga) foydalanishga ruxsat etiladi. Aviakorxonalar shaxsiy yer usti transportlaridan foydalanishlari yoki tadbirlarni amalga oshirishni tashkil qilishlari mumkin, shu jumladan yer usti transport tashuvchilari bilan kodsher bitimi doirasida. Bunday intermodal xizmatlarning kombinatsiyalashgan aralash havo va yer usti transporti tashuvlarini

bajarish yo'li bilan yagona tarif bo'yicha faqatgina yo'lovchilar va yuk jo'natuvchilar yuk tashishga jalb qilingan transportlar to'g'risida xabardor qilingandagina amalga oshirilishi mumkin.

16-modda

Tijoriy bitimlar

1. Belgilangan yo'nalishlarda kelishilgan qatnovlarni amalga oshirish chog'ida, har ikki Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalari Ahdlashuvchi Tomonlarning xohlagan aviakorxonasi bilan yoki uchinchi davlatning tegishli qatnov va transport huquqlari huquqqa ega bo'lgan aviakorxonasi bilan SPA yoki kod-sher kabi tijoriy bitimlarga kirishishi mumkin. Agar uchinchi davlat aviakorxonalari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning aviakorxonalari va boshqa aviakorxonalar o'rtasida bunday uchinchi davlatga, undan va u orqali havo qatnovlari bo'yicha o'xshash kelishuvlarni amalga oshirishga vakolat bermasa yoki ruxsat bermasa, manfaatdor Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlari bunday kelishuvlarni qabul qilmaslik huquqiga ega.

2. Agar tayinlangan aviakorxona kod-sher bitimi asosida tashuvchi aviakorxona sifatida qatnovlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, amalga oshirilayotgan hajmlar bunday aviakorxonani tayinlagan Ahdlashuvchi Tomon hajmlaridan chiqarib tashlanadi.

3. Boshqa aviakorxonalarning xizmatlari bo'yicha hamkor (marketing) aviakorxona sifatida faoliyat yuritayotgan tayinlangan aviakorxona tomonidan taklif qilinayotgan hajm, mazkur aviakorxonani tayinlagan Ahdlashuvchi Tomonga taqdim qilingan hajmga ta'sir qilmaydi.

4. Havoning beshinchi erkinligi huquqi kod-sher kelishuvlariga asosan yo'nalishdagi hamkor aviakorxonalar tomonidan qo'llanilmaydi.

5. Har qaysi Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalari kod-sher kelishuvga jalb etilgan havo kemalariga, ularning soni, hajmi hamda havo kemasining turini cheklamasdan, parvozlarni to'g'ri bog'lovchi reys ko'rinishida tashkil etish sharti bilan tashuvlarni amalga oshirish huquqini berishlari mumkin.

6. Kod-sher kelishuvi doirasidagi qatnovlar Ahdlashuvchi Tomonlarning odatda bunday xizmatlarga nisbatan qo'llaniladigan yo'lovchilarning himoyasi va ularga ma'lumot, xavfsizlik, javobgarlik bo'yicha talablar hamda xalqaro tashishlarni amalga oshiradigan boshqa aviakorxonalarga qo'llaniladigan har qanday boshqa talablarga javob beradi. Sotilgan har bir chipta bo'yicha xaridor savdo nuqtasida qaysi aviakorxona xizmat ko'rsatishning har bir sohasini amalga oshirishi haqida xabardor qilinadi.

7. Ahdlashuvchi Tomonlarning tayinlangan aviakorxonalari boshqa Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatiga parvozlarni amalga oshirishni boshlash taklif qilingan sanadan hech bo'lmaganda o'ttiz (30) kun oldin parvozlarning dasturi va jadvalini ko'rib chiqish va/yoki tasdiqlash uchun taqdim qiladi.

17-modda

Statistik ma'lumotlar

Har bir Ahdlashuvchi Tomonning aviatsiya ma'muriyatlari boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviatsiya ma'muriyatlarining tegishli so'rovnomasiga binoan Ahdlashuvchi Tomonlardan birining tayinlangan aviakorxonalari boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududiga yoki hududidan kelishilgan qatnovlar doirasida amalga oshirgan parvozlarga oid axborotlar yoki statistik ma'lumotlar taqdim etilishi lozim va ular tayinlangan aviakorxonalar o'zlarining aviatsiya ma'muriyatlariga tayyorlagan va taqdim etgan ma'lumot va axborotlar bilan bir xil shaklda bo'ladi. Ahdlashuvchi Tomonlardan birining aviatsiya ma'muriyatlari boshqa Ahdlashuvchi Tomon aviatsiya ma'muriyatlaridan tashuvlarga oid so'rashi mumkin bo'lgan har qanday qo'shimcha statistik ma'lumot Ahdlashuvchi Tomonlardan birining so'rovnomasiga asosan o'tkaziladigan ikkala Ahdlashuvchi Tomon aviatsiya ma'muriyatlari o'rtasidagi muzokaralarda muhokama qilinadi.

18-modda

Maslahatlashuvlar va o'zgartirishlar

1. Yaqin hamkorlik ruhida Ahdlashuvchi Tomonlarning aviatsiya ma'muriyatlari mazkur Bitim qoidalarining qo'llanilishi va ularga lozim darajada rioya qilish masalalarida vaqti-vaqti bilan o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazadilar. Bunday maslahatlashuvlar Ahdlashuvchi Tomon tarafidan so'rovnoma olingan sanadan boshlab oltmish (60) kun ichida boshlanadi.

2. Agarda Ahdlashuvchi Tomonlardan biri mazkur Bitim qoidalaridan birortasini o'zgartirishni lozim deb hisoblasa, boshqa Ahdlashuvchi Tomondan maslahatlashuvlar o'tkazishni so'rashi mumkin. Bunday maslahatlashuvlar so'rovnoma kelib tushgandan boshlab oltmish (60) kun ichida boshlanadigan muzokaralar yoki yozishmalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu tarzda kelishilgan har qanday o'zgartirishlar mazkur Bitimning 23-moddasida belgilangan tartibda kuchga kiradi.

3. Mazkur Bitimga ushbu moddaning 2-bandi qoidalariga muvofiq avvaldan kelishilgan o'zgartirish va qo'shimchalar har bir Ahdlashuvchi Tomon o'z ichki davlat proseduralarini tugatganligi to'g'risidagi xabarnomalari diplomatik kanallar orqali almashganidan so'ng kuchga kiradi.

19-modda

Nizolarni hal etish

1. Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida ushbu Bitimni talqin qilish yoki qo'llash bilan bog'liq har qanday nizo kelib chiqsa, Ahdlashuvchi Tomonlar, birinchi navbatda, uni to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar. Aviatsiya ma'muriyatlari ushbu Bitimning 18-moddasi 1-bandi qoidalariga muvofiq bunday muzokarlarda ishtirok etishlari mumkin.

2. Agarda Ahdlashuvchi Tomonlar kelishuvga erishmasalar, ushbu nizo diplomatik maslahatlashuvlar orqali hal etiladi. Bunday maslahatlashuvlar bir Ahdlashuvchi Tomon tarafidan so'rov olingan sanadan boshlab oltmish (60) kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida boshlanadi.

3. Agarda Ahdlashuvchi Tomonlar nizoni mazkur moddaning 1- va 2-bandlariga muvofiq muzokara yo'li bilan hal etishga erishmasalar, ushbu nizo Ahdlashuvchi Tomonlardan birining so'roviga binoan ikkala Ahdlashuvchi Tomondan bittadan tayinlanadigan arbitr va ushbu tartibda ikki tayinlangan arbitr tomonidan o'zaro kelishuvga asosan tanlangan uchinchi arbitr tarkibidagi uch nafar arbitrlardan iborat hakamlik sudiga murojaat qilishlari mumkin. Har bir Ahdlashuvchi Tomon boshqa Ahdlashuvchi Tomondan diplomatik kanallar orqali arbitraj o'tkazilishi bo'yicha so'rovnoma kelib tushgan kundan boshlab oltmish (60) kun ichida arbitrni tayinlaydi. Uchinchi arbitr ikkinchi arbitr tayinlangandan so'ng keyingi oltmish (60) kun ichida tayinlanadi. Uchinchi arbitr boshqa davlat fuqarosi bo'lishi lozim va sud raisi sifatida faoliyat olib boradi hamda arbitraj o'tkazilish joyini belgilaydi. Agarda Ahdlashuvchi Tomonlar o'zlarining arbitrlarini yuqorida qayd etilgan muddatlarda tayinlay olishmasa, u holda Ahdlashuvchi Tomonlardan biri Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti kengashi Prezidentidan talab qilinayotgan holatga qarab arbitr yoki arbitrlarni tayinlashni so'rashi mumkin. Bunday holatda uchinchi arbitr uchinchi davlat fuqarosi bo'ladi va arbitraj sudining raisi sifatida faoliyat olib boradi.

4. Arbitraj sudi o'z tartibotlarini mustaqil belgilaydi. Milliy arbitrlarning xarajatlarini uning nomzodini ko'rsatgan Ahdlashuvchi Tomon o'z zimmasiga oladi. Arbitraj sudi bilan bog'liq boshqa xarajatlar Ahdlashuvchi Tomonlar o'rtasida teng taqsimlanadi.

5. Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur moddaning 3-bandiga muvofiq chiqarilgan har qanday qarorga rioya qiladilar.

6. Har qanday holatda Ahdlashuvchi Tomonlardan biri mazkur moddaning 3-bandiga muvofiq chiqarilgan qarorga rioya qilmasa va rioya qilmaslikda davom etsa, boshqa Ahdlashuvchi Tomon mazkur Bitimga asosan berilgan har qanday huquq yoki imtiyozni cheklashi, rad etishi yoki bekor qilishi mumkin.

20-modda

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotida ro'yxatdan o'tish

Mazkur Bitim va unga keyingi kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotida ro'yxatdan o'tkaziladi.

21-modda

Ko'p tomonlama konvensiyalar

Ikkala Ahdlashuvchi Tomon mazkur Bitim kuchga kirgandan so'ng u bilan tartibga solinadigan masalalarga taalluqli ko'p tomonlama konvensiya yoki bitimga qo'shilgan hollarda, mazkur Bitimni bunday ko'p tomonlama konvensiya yoki bitim shartlariga muvofiqlashtirishni aniqlash maqsadida Ahdlashuvchi Tomonlar mazkur Bitimning 18-moddasiga muvofiq maslahatlashuvlar o'tkazadilar.

22-modda

Tugatilishi

Har bir Ahdlashuvchi Tomon istalgan vaqtda boshqa Ahdlashuvchi Tomonni ushbu Bitimning amal qilishini tugatish qarori to'g'risida diplomatik kanallar orqali xabardor qilishi mumkin. Ayni vaqtda bunday mazmundagi xabarnoma Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotiga ham yuboriladi. Bunday hollarda Bitimning amal qilishi bir Ahdlashuvchi Tomon xabarnomasi boshqa Ahdlashuvchi Tomon tarafidan olingan kundan boshlab o'n ikki (12) oydan so'ng tugatiladi, bosharti bu muddat davomida Ahdlashuvchi Tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida bunday xabarnoma qaytarib olinmasa. Boshqa Ahdlashuvchi Tomonning bunday xabarnomani olganligi tasdiqlanmasa, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti xabarnomani olgan sanadan boshlab o'n to'rt (14) kun o'tgach u olingan deb hisoblanadi.


23-modda **Kuchga kirishi**

Mazkur Bitim Ahdlashuvchi Tomonlar uning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan davlat ichki protseduralarini bajarilganligi to'g'risida diplomatik kanallar orqali so'nggi yozma xabarnoma olingan sanadan keyingi ikkinchi oyning birinchi kunidan boshlab kuchga kiradi.

Ushbuning tasdig'i sifatida, o'zlarining hukumatlari tomonidan tegishli vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar ushbu Bitimni imzoladilar.

Budapesht shahrida 2023-yil "19" avgust da har biri o'zbek, venger va ingliz tillarida ikki asl nusxada tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega. Talqin qilishda har qanday tafovut yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan

Handwritten signature in blue ink, appearing to read "D. V. ano" followed by a stylized flourish.

Vengriya Hukumati
nomidan

Handwritten signature in blue ink, featuring a large loop and a stylized "K" or "L" shape.

**O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Vengriya Hukumati
o'rtasidagi havo qatnovi to'g'risidagi Bitimga
1-ilova**

Yo'nalishlar jadvali

I-bo'lim

O'zbekiston Respublikasi aviatsiya ma'muriyatlari tomonidan tayinlangan aviakorxonalar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha havo kemalari qatnovlarini amalga oshirish huquqiga ega:

O'zbekiston Respublikasidagi manzillar	Oraliq manzillar	Vengriyadagi manzillar	Tashqi manzillar
Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar

II-bo'lim

Vengriya Aviatsiya ma'muriyatlari tomonidan tayinlangan aviakorxonalar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha havo qatnovlarini amalga oshirish huquqiga ega:

Vengriyadagi manzillar	Oraliq manzillar	O'zbekiston Respublikasidagi manzillar	Tashqi manzillar
Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar	Xohlagan manzil yoki manzillar

Eslatma:

1. Tayinlangan aviakorxonalar bir yoki bir necha manzillarni o'zgartirishi yoki Ilovaning 1- va 2- bo'limlarida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi manzillarni to'liq yoki qisman tushirib qoldirishi mumkin,

xususan, jo'nash manzili aviakorxonani tayinlagan Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida bo'lsa.

2. Har bir Ahdlashuvchi Tomonning tayinlangan aviakorxonalari o'zlariga qulay bo'lishi uchun manzillarni 1- va 2-bo'limlarda belgilangan yo'nalishlarda boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududida birlashtirishlari mumkin.

3. 1- va 2- bo'limlarda ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasi hududidagi manzillar hamda Vengriya hududidagi manzillar va har ikkala yo'nalishlarda o'rnatilgan oraliq va tashqi manzillar havoning beshinchi erkinligi huquqlarisiz amalga oshirilishi, Ahdlashuvchi Tomonlarning tayinlangan aviakorxonalari tomonidan erkin tanlangan bo'lishi va qatnovlar amalga oshirilishidan 30 kun oldin Ahdlashuvchi Tomonlarning aviatsiya ma'muriyati tomonidan taqdim qilinishi lozim. Dastlabki tanlangan manzillar shu tartibda o'zgartirilishi mumkin.

4. Agar Ahdlashuvchi Tomonlarning aviatsiya ma'muriyatlari o'rtasida bunday bitim tuzilib kuchga kirmasa, oraliq manzillar va tashqi manzillar hamda boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududidagi manzillar o'rtasida beshinchi erkinlik huquqi qo'llanilmaydi.